




Po'lat
Mo'min

Bo'ladigan bolalar





Po'lat
Mo'min

Bo'ladigan bolalar



JIZZAX VILOYAT AXBOROT-KUTUBXONA MARKAZI	
INV №	10520
« 31 »	08 2017 y


YANGI ASR AVLADI
TOSHKENT
2013

UDK: 821.512.133-1

BBK: 84 (5 ŷ36)7

M-11

Mo'min Po'lat. Bo'ladigan bolalar. She'rlar/ -T.: «Yangi asr avlodi», 2013. - 96 b.

ISBN 978-9943-27-178-4

Bolalarning taniqli shoiri Po'lat Mo'minning ushbu saralangan to'plamida ota-onaga mehr, do'stlik, odob-axloq, mehnat va bilimdonlik, zukko bo'lishga chorlovchi she'rlar o'rin olgan.

Kichik va o'rta maktab yoshidagi aziz o'g'il-qizlar, bu qiziqarli kitob sizlarga manzur bo'ladi, degan umiddamiz.

UDK: 821.512.133-1

BBK: 84 (5 ŷ36)7

Rassom **Habibulla Rahmatullayev**
chizgan rasmlardan foydalanildi



ISBN 978-9943-27-178-4

© Po'lat Mo'min, «Bo'ladigan bolalar». «Yangi asr avlodi», 2013-yil.

*Ey, aziz kitobxonim,
Yetganda kuch-imkonim,
Sizga she'rdasta tuzdim,
Qarzimni biroz uzdim.
Ochig'i, ko'pdir qarzim,
(lekin sira yo'q arzim)
Qolmayin deb ginada,
Quduq qazdim ignada.*

*To'qidim qo'shiq, ertak,
Bular emasdir ermak.
Erinmay o'qib chiqing,
Yaxhisi, mag'zin chaqing.
Eslab yursangiz uni,
Kerak bo'lar bir kuni...*

*Etmang deb aslo taqlid,
Yomonni qildim tanqid.
Ko'p o'rinda maqtadim,
Yaxshilikdir maqsadim.*

*Siz bergan zavqdan toshdim,
Kitobim-ko'nglim ochdim.*

SALOM BERGANLAR

Salomat bo'lsin
Salom berganlar.

Ko'ngil bog'idan

Gullar terganlar.

Bobolariga

«Assalom» degan,

Momolariga

«Achchalom» degan,

Tani-joningiz

Sog' bo'lsin, deya,

Ko'nglingiz doim

Chog' bo'lsin, deya

Salom berganlar

Salomat bo'lsin.

Ishlari doim

Alomat bo'lsin

Eng a'lo ular,

Eng dono ular.





QUSHLAR ERTA UYG'ONAR

Har qachon,
Hamma yerda
Qushlar uyg'onar erta.
Shoxdan shoxga sakrashar,
Oldin-keyin sayrashar.
Bunga odat qilishgan.
Foydasini bilishgan.
Nafas olishib chuqur,
Qilishar chug'ur-chug'ur.
Yurishadi qonlari,
Orom olar jonlari.
Sof havo dengiz misol –
Sho'ng'ishadi bermalol.
O'z tilida so'zlashar,
Yaxshilikni ko'zlashar.
Muhtoj bilmay birovga
Otlanishadi ovga.
Aslida shuning uchun
Mashq qilib,
Yig'ib kuchin –
Hasharotni qirishar.
Elga xizmat qilishar.

Qushlarning orasida
Uchrasa ora-sira -
Landovur - dangasasi -
Qotishadi ensasi...
Qo'shishmaydi qatorga,
Chiqarishar beorga.

Qushday uyg'ongan erta
Sog'lomdir hamma yerda.

SEN ERTA TURIB

Tonglar zavqin sur
Sen erta turib.
Puxta reja qur
Sen erta turib.

Chiniqsang asta
Bo'lmaysan xasta.
Maydonda yugur
Sen erta turib.

Havo musaffo,
Artilgan go'yo.
Qilaver huzur
Sen erta turib.

Kutar maktabing,
Ochilar ta'bing.
Shirin xayol sur
Sen erta turib.

Chiqqan quyoshga,
Keksaga, yoshga
Salomga ulgur
Sen erta turib.

O'QITUVCHI BERDI-DA SALOM, SUHBATINI ETTIRDI DAVOM:

- O'qituvchilik	Uning fayri-yu,
O'rgatish demak,	Qimmatin sezdim.
O'rgatish uchun	O'qitganlarim
O'rganish kerak.	Har bir sohada:
Gul ochilganda,	Zavod, fabrika,
Gektar va gektar,	Dalam vohada...
Bolari undan	Bittasi olim,
Olar-da nektar, -	Oshgan o'zimdan,
So'ng uyasiga	Ba'zi birlari
Keltiradi bol.	Yurar izimdan.
O'qituvchi ham	Har bir shogirdim
Bunga bir misol.	Berganda salom,
Bilim bolini	Hurmat-izzatdan
Yig'volib men ham	Olamani orom.
Bolalar bilan	Qarang, zo'r quvonch
Ko'raman baham.	Qurshab shu mahal,
Chuqur bo'lsin deb	Ustoz ko'zimga
Darsim mazmuni,	Ko'rinar har gal.
Maktab borishdan	Shogirdlik o'xshar
Oldin har kuni,	Estafetaga,
Qarang, o'zim ham	Bugungi shogird
O'rganaman dars.	Ustoz ertaga.
O'qituvchiga	Ulug' istagim
Bu farz va qarz.	Shundaydir, xolos:
Men ham bu kasbni	«Har bir o'quvchim
Yurakdan sevdim.	Bo'lolsin ustoz».

QIZALOQLARMIZ

Qizaloqlarmiz,
Eng quvnoqlarmiz.

Rosayam sho'xmiz,
Tinimi yo'qmiz.

Yuramiz quvnab,
Kapalak quvlab.

O'yin tushurmiz,
Qushday uchurmiz.

Xushdir vaqtimiz,
Kulgan baxtimiz.

Qizaloqlarmiz,
Eng quvnoqlarmiz.



INTILAMAN MAQSADIMGA

Intilaman

Tog'lar sari

Borgan sari.

Cho'qqilarda

Bulut bo'lsam,

Burgut bo'lsam.

Ulg'ayaman,

oshiqaman,

kuch yig'aman.

Dam olaman

qiyalarda,

soyalarda.

Yuksaklarda

ruhim o'sar,

fikrim o'zar.

Qani endi,

chiqsam tikka

yuksaklikka.

Yuragimda

tilagim bor,

Toleyim yor.

Intilaman

Maktabimga,

Maqsadimga!

ONA MEHRI

Oyim ketdi bozorga,
Olib qoldim singlimni.
Toki oyim kelguncha
Tinchitmadi ko'nglimni.
Bir soat ham o'tmayin
Oyisini qo'msaydi,
Ovunmaydi sirayam,
Unga-bunga ko'nmaydi.
Ko'pdan beri asragan
Shokoladim bor edi.
Ovunar deb o'yladim
Singlinga bersam endi.
Uni asta uzatdim,
Ko'rsatib mehr-u himmat.
Unga ta'kidlab qo'ydim
Bu shokolad – eng qimmat!
Qimmat bilan ishi yo'q,
Himmat bilan ishi yo'q!
Oyisini ko'riboq
Birdan bo'ldi xushchaqchaq.
Oyisini achomlab
Bag'riga singib ketdi.
Qarang, onaning mehri
Barchasin yengib ketdi.



SIZ BIZNI DEYSIZ, BIZ SIZNI DEYMIZ

Sizlar ota-onamiz,	Gap ochig'i, bizlar-chi,
Bizlar-chi farzand.	Bir xil emasmiz,
Rosa yayrab ketasiz,	Sizning g'amxo'rligingiz
Biz bo'lsak xursand.	Teng payqamasmiz.

Yetkazmoqni istaysiz	Sizni nohaqdan-nohaq
Bizni voyaga.	Ranjitamiz goh.
Oftob o'tsa tortasiz	Ba'zimizga bilinmas
Salqin-soyaga.	Chekkaningiz oh...

Gulni o'stirgan misol,	Oramizda uchraydi
Bizni ayaysiz.	Nodonlar hanuz.
Go'yoki bizlar uchun	Qadringizni bilishga
Ishlab, yashaysiz.	Ochsaydilar ko'z.

Ko'rinmay qolsak agar,	Chaqiraman ularni
Zumda izlaysiz.	Sizni sevishga,
Ovutib erkalaysiz,	G'amxo'rolig-u mehringiz
Goho sizlaysiz.	Dildan sezishga.

Bardoshlisiz shunchalar,	Hamma joyda, har qachon
Ota-onalar.	Siz bizni deysiz.
Eshitasiz bizni deb	Ishoninglar, farzandlar
Ba'zan ta'nalar.	Biz sizni deymiz.

UMID BILAN YASHAR BOBOM

Mening to'qson yashar bobom,
Umid bilan yashar bobom.

Qaridim deb o'tirmaslar,
Yumushdan yuz o'girmaslar.

Orzulari hali katta,
Yuzga kiray deb, albatta,

Kuymanarlar uni-buni,
Odatlari shu har kuni.

Yaxshilikni izlaydilar,
Bobolarin eslaydilar.

Hunarleri ekan kulol,
Yashabdilar doim halol.

Hunarimni qilgil davom
Gapirarlar menga bobom.

Ko'ringanni bilib-bilib
Yuradilar duo qilib.

Yomon so'zdan yiroqdirlar,
Uyimizga chiroqdirlar.

Dillarida ulug' maqsad,
Maqsadlari berar madad.

Mening to'qson yashar bobom,
Umid bilan yashar bobom.

KEKSALAR YONIDAN O'TGANDA

Keksalarning oldidan

Salom bermay o'tsa kim,

O'tsa jim,

Ko'rsam hamki men uni

Har kuni

Tanimayman,

Odobli deb sanamayman...

Ich-ichimdan...

G'ijinaman...

Bo'laturib devday sog'lom

Demasa-ya ul assalom!

Bor kallasi-o'z miyasi...

G'ovlaganmi tarbiyasi?

Yoki beti charimmikan?

Yo es-hushi yarimmikan?

Ular bizning bobomizdir,

Momomizdir.

Olaylik-da duosini,

Duolardan davosini.

Ular bari tabarrukdir,

Eng buyukdir.

Pisand qilmay,

Xursand qilmay

O'tib ketmoq

Beandisha yo'l tutishdir,

O'zligini unutishdir.

Niyatim shul, erta-yu kech

Bunday holni ko'rmasam hech!

NONVOY O'Z NONIDAN SO'ZLAR DIL-JONIDAN:

– Non juda tabarruk,
Taomdir eng suyuk.
Non so'zi eng aziz,
Non o'zi eng laziz.
Turaman ertalab
Tandirga o't qalab,
Non yasab xamirdan
Pishirsam tandirda
Po'rsildoq issiq non,
Kulchalar, –
Gulchalar
Yesangiz huzurjon.
Tarqalsa non isi
Yozilsa dasturxon,
Chiroydir unga non,
To'qchilik belgisi.
Mezbonning yuzidir,
Hurmatning o'zidir.
Non bilan yurt obod,

Non bilan ellar shod.
O'xshaydi non gulga
Tegmas hech ko'ngilga,
Shunday der ustozlar:
Non aziz – non halol,
Nonni kim e'zozlar
Issiqdir rang-ro'yi,
Balanddir obro'yi.
Nonni kim etsa xor,
Nonga u bo'lar zor,
Nonning bir uvog'i,
Go'yo ko'z qarog'i.
Non aziz – non halol,
Bo'lmasin hech uvol.
Bu kasbni sevdim men,
Qadrini sezdim men,
Har tong non yopurman,
Rizq-u baxt topurman.

NON OLIB KELDIM

Yolg'on emas – chin so'zim,
Magazindan bir o'zim
Ko'cha chetidan yurib,
Ancha narsani ko'rib,
Qaytimni yo'qotmasdan,
Kuchukka tosh otmasdan,
Olib keldim issiq non,
Uyga kelganda mehmon!



DONO VA MEHRIBON SHIRINSO'Z BOG'BON:

– Do'stlarim,
Sizlardan
Iltimosim bor.
Yaxshisi,
Kelinglar –
Bog'imga bir bor.
Eshitgandan ko'ra
Ko'rgan derlar soz.
Gullarim etayin
Yo'lga poyandoz.
Balki so'zlarimni
Daraxt barglari
Shivirlab,
Shitirlab,
Ma'qullar bari.
Men bo'lsam ota-yu,
Daraxtlar farzand.
Barcha nihollarga
Yuragim payvand.
To'rt fasl to'kaman
Peshonamdan dur.

Niholga sochaman
Ko'zlarimdan nur.
Bog'im yashnashidan
Ko'nglingiz o'sar.
Shoxlari qo'l misol
Mevasin cho'zar.
Mevamdan yeb ko'rib
Qilinglar rohat,
Menga kifoyadir
Desangiz «rahmat!..»
Bobomlar so'zini
Eslayman harvaqt:
Derdilar:
– Daraxt
Keltiradi baxt.
Kimki bog'ni boqar,
Eliga yoqar.
Qarisam-da ko'pdir
Ezgu – odatim,
Yurtimni bog' qilish
Orzu niyatim.

DO'STLIK SHARTIDAN

Do'sting agarda
Bo'lsa serzarda, –
Sen unga doim
Bo'lsang muloyim,
Tajang davridan
Tushar hovridan.
Uyalib o'zi
Kuladi ko'zi.

Zardaga zarda
Qilsang agarda –
Do'stlik chilparchin
Bo'lmog'idir chin.
Do'stni yupatib
Goho yumshatib –
Yurguchi marddir,
Do'stlikda shartdir.

«2» QO'MANG, O'QITUVCHIM

Qiyin ekan savolingiz,
Yo'qmi boshqa misolingiz?
O'qituvchim, ko'p qiynamang,
Baland bo'lsin iqbolingiz.

N a q a r o t:

Yetarlidir «ikkim», «uchim»,
«2» qo'ymang, o'qituvchim.
Osonidan ozroq so'rang,
Jon domlajon, «2» qo'ymang,
«2» qo'ymang, «2» qo'ymang.

Vazifalar ancha og'ir,
Kitob olsam boshim og'rir.
Qandoq qilay, o'qituvchim,
U ahvolda qolmay oxir.

N a q a r o t:

Yuragimni bosmasin g'am,
Nima deydi ota-onam.
Sirlarimni aylamang fosh,
Mayli edi «4» bo'lsa ham...

N a q a r o t.

Imtihondan o'tib olay,
Keyin o'zim o'qib olay.
Iloj qiling, o'qituvchim,
Kanikulga chiqib olay.

N a q a r o t:

Yetarlidir «ikkim», «uchim»,
«2» qo'ymang, o'qituvchim.
Osonidan ozroq so'rang,
Jon domlajon, «2» qo'ymang,
«2» qo'ymang, «2» qo'ymang.

**OFTOB HAM YAXSHI,
ODOB HAM YAXSHI**

Oftob yaxshimi,
Odob yaxshimi?
Oftob berar nur,
Odob-chi? Huzur.
Lolalar uchun
Oftob yaxshidir,
Bolalar uchun
Odob yaxshidir.
Bolalar uchun
Odob yaxshidir.
Oftob bo'lmasa,
Qorong'u tushar,
Odob bo'lmasa,
G'am-qayg'u tushar.
Oftob ko'rinar
Tog'-tepalikda,
Odob ko'rinar
Salom-alikda.
Odob har kimning
Yuzi-ko'zida.
Olamning yuzi
Oftobdan isir,
Odamning yuzi
Odobdan isir.
Olamning doim
Oftobi bo'lsin,
Odamning doim
Odob bo'lsin.



PO'LAT MO'MIN - SEVIMLI BOLALAR ADIBI

Po'lat Mo'min shoir, dramaturg sifatida adabiyot ixlosmandlariga, xususan, kichik yoshdagi kitobxonlarimizga yaxshi tanish. U 1922-yil 24-dekabrda Toshkent shahrida tavallud topgan. Nizomiy nomidagi pedagogika (1944) institutini tugatgan. 1951 - 1952-yillarda O'zbekiston Davlat nashriyotida bolalar adabiyoti bo'limining mudiri, 1954 - 1960-yillarda Yozuvchilar uyushmasida, 1962 - 1964-yillarda Madaniyat Vazirligi qoshidagi San'at boshqarmasida muharrirlik qiladi. 1949-yilga kelib, uning «Sayrang, qushlar» nomli ilk to'plami chop etiladi. Ketma-ket «Bo'l, tayyor!», «Tish cho'tkasi ertagi» (1955), «Hunardan unar» (1958), «To'g'ri o'sgan gul bo'lar» (1960), «Aql qayerda bo'lar» (1962), «Oltin nay» (1967), «Rahmatga rahmat!» (1969), «Eson va Omon» (1971), «Odob va oftob» (1971) hamda «Yaxshilarga o'xshasam», «Gul va Piyoz», «Kuldi xiyol», «Men sevaman, sen sevasanmi?», «Oltin boshloqlar», «66 oltin ko'l» kabi o'nlab to'plamlari nashr etilgan. Po'lat Mo'min dramaturg sifatida ham «Qovoqvoy bilan Chanoqvoy» (1970), «Suqatoy va Konfetvoy», «Bahodirning jasorati» kabi asarlari muallifidar. Shoirning «Indamadi», «Onadur ul, onadur», «Ey, muhabbat», «Senga bir gap aytaman» kabi o'nlab she'rlari allaqachon qo'shiqqa aylanib, xalqning dilidan chuqur joy olgan.

Sevimli adibimiz 1992-yilda O'zbekiston xalq yozuvchisi faxriy unvonga sazovor bo'lgan.

MUNDARIJA

Salom berganlar	4
Qushlar erta uygʻonar.....	5
Sen erta turib	6
Oʻqituvchi berdi-da salom, suhbatini ettirdi davom:	7
Qizaloqlarmiz	8
Intilaman maqsadimga	9
Ona mehri	10
Siz bizni deysiz, biz sizni deymiz	11
Umid bilan yashar bobom	12
Keksalar yonidan oʻtganda	13
Nonvoy oʻz nonidan soʻzlar dil-jonidan:	14
Non olib keldim	15
Dono va mehribon shirinsoʻz bogʻbon:	16
Doʻstlik shartidan	16
Dalalardan gul terdik	17
Boʻladigan bolalar	18
Doʻstim xafa koʻrindi	18
Menga yoqadi qandday	19
Soʻzning qaymogʻi	20
«Siz» demoqlik – siylamoqlik	20
Oʻynab kelsam, oʻylab kelsam	21
Bajaramiz tezlikda	22
Kitobim qoʻlimda	23
Kerakdir mashq – oʻrganish	24
Oftob zoʻr tabib	25
Turnalarga qoyilman	26
Gul koʻtargan qizaloq	27
Kamalak qoʻshigʻi	28
Navroʻz sharofati	29
Har yil koʻklam keladir	30
Yashil barglar	31

Chamanzor chiroyi	32
Ochildi gulim	33
Sumalak pishardi	33
Maqtanchoq bo'lar qandoq?	34
Yarashgani yarashdi	34
Hafsala haqida she'r	35
Kechirim so'rash	36
Qizg'anchiq va sirpanchiq	36
Ukam uxlamoqda	37
Olti alisher	38
Qochib ketdi	39
Na maktabda, na uyda yo'q	39
Devordan oshar u... ..	40
Shunday ikki bola bor	41
Beshga «5», ikkiga «2»	42
Hazildan ketdi zil	42
Yolg'on gapirib qo'ydim... ..	43
O'quvchi «u» – uyquchi	44
Bo'lar ekan Kulmasvoy	45
Olifta bola	47
Yoqimsiz bola	48
Yerda yotar burda non	48
Do'stim nega xafa	49
Bir yarim Karim	50
Bekorchidan el bezor	51
O'zini yo'qotibdi... ..	52
O'rnak chumolilar	53
Uchrab turar tulkilik	54
Kimki qilsa xarxasha	54
Ikki qo'li cho'ntakda	55
Og'zini ochib qoldi (hazil)	56
Yurak kerak (hazilnamo)	57
Ushlamoqchi uyquni	57
Yolg'iz qolib zerikar	58
Birgalashib yig'laymiz! (hazil)	59

Bo'sh kelganni yengarmish.....	60
Xo'p maza – o'n lahza (katta tanaffus)	61
Xoldan so'rang hol-ahvol (qofiya o'yini)	62
Ko'zim va o'zim (hazil)	63
Jiyda jilvalari	64
Yer chopildi – javob topildi	64
Gerdaysa arzir xo'roz	66
Tinmagan qushlar	68
Qadrdon qaldirg'och	69
Bular nima degani?	69
Turnalar safari	70
Bo'ri ochibdi maktab	71
Mayna sayrar	72
Aka-uka taka	72
Antennalik qurt	74
Eshak va yaxmalak	74
Pingvin va chivin	75
Biz kimmiz?	76
Dalalarim	76
Yashasin yakshanba	78
Ismlar qo'shig'i	79
Papka bilan siyohdon	80
Tish cho'tka, poroshok va atirsovun ertagi	82
«2» qo'ymang, o'qituvchim	87
Oftob ham yahshi, odob ham yahshi	88
Po'lat Mo'min – sevimli bolalar adibi	89

Adabiy-badiiy nashr

PO'LAT MO'MIN

BO'LADIGAN BOLALAR

Muharrir

Zokir ZAMONOV

Texnik muharrir

Vera DEMChENKO

Badiiy muharrir

Uyg'un SOLIHOV

Musahhih

Hosiyat IBRAGIMOVA

Kompyuterda sahifalovchi

Feruza BOTIROVA

Bosishga 04.12.2013-y.da ruxsat etildi. Bichimi 84x108 1\32.

Bosma tobog'i 3,0. Shartli bosma tobog'i 5,04.

Garnitura «Bookman Cyr+Uzb». Ofset qog'oz.

Adadi 5000 nusxa. Buyurtma № 271.

Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» NMMda tayyorlandi.

Litsenziya raqami: AI № 198. 2011-yil 28.08 da berilgan.

«Yoshlar matbuoti» bosmaxonasida bosildi.

100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

Murojaat uchun telefonlar:

Nashr bo'limi – 278-36-89; Marketing bo'limi – 128-78-43

faks – 273-00-14; web-saytimiz: www.yangiasr.uz

internet-do'kon: www.yangidavr.uz e-mail: info@yangiasr.uz

**«Yangi asr avlodi» NMM tomonidan nashr etilgan
sevimli adibimiz Xudoyberdi TO'XTABOYEVning
quyidagi kitoblarini maktad yoshidagi aziz
o'quvchilarimizga tavsiya etamiz:**

Xudoyberdi TO'XTABOYEV
«BESH BOLALI YIGITCHA»
Sarguzasht roman. – 288 b.

Bolalik – beboshlik, deymiz. Ammo bu davr zahmatlarga, mashaqqatlarga limmo-lim bo'lsa-chi? Beboshlikka, sho'xliklarga o'rin qolarmikan? Bunday bolaning qalbi, dunyosi kattalar hayotiga yaqin bo'ladi. O'zi bilib-bilmay taffakuri o'sib, irodasi metin insonga aylanadi.

Sevimli adibimiz Xudoyberdi To'xtaboyevning qayta-qayta o'qiladigan ishbu asarini siz, aziz kitobxonlarga hadya etayotganimizdan mamnunmiz.

Xudoyberdi TO'XTABOYEV
«JANNATI ODAMLAR»
Ertak-roman. – 268 b.

O'zbekiston Xalq yozuvchisi, bolalarimizning sevimli adibi Xudoyberdi To'xtaboyevning sara asarlari va yangi ertaklarini to'rt jildda kitobxonlar hukmiga havola etayotganimizdan xabaringiz bor. Ikkinchi jildda esa «Jannati odamlar» romani bilan birga yangi zamon ertaklari o'rin olgan.

Ushbu ertak-qissalarni eng avvalo mehribon bobojonlar suyukli nabiralariga o'qib bersinlar, so'ngra suyukli nabiralar yonboshlab yotgan bobojonlariga o'qib bersinlar. Har ikki tomon qissaning «mazzasini shimib» turguncha, endi buvijonlar asaldek shirin qizlariga o'qib bersinlar. Keyin muallifga «Ey Xudoyberdi bobo, o'zingizning bobongiz bilan ertakchi enangiz haqida yozibsizu, nega mening bobom bilan ko'zoynak taqqan buvijonim haqida yozmabsiz, nega, nega, nega» degan mazmunda xat yozib, bobojoni aytgan mataldan, buvijoni aytgan ertakdan bittadan qo'shib jo'natsinlar.

Xudoyberdi TO'XTABOYEV

«MUNGLI KO'ZLAR»

Ertak-roman. 308 b.

Ota-onaga farzandining baxtidan bo'lak ne'mat kerak emas. Xuddi shuningdek, farzand ham eng baxtiyor damlarida ota-ona yonida bo'lgisi, baxtini ular bilan baham ko'rgisi keladi. Ota-ona diydori, ota-ona mehrini ular har narsadan aziz biladilar.

Qimmatli kitobxon! Sevimli yozuvchimiz Xudoyberdi To'xtaboyevning siz, aziz kitobsevar do'stlarimiz uchun taqdim etilayotgan mazkur kitobida ana shu mavzu qalamga olingan. Asarning yozilganiga oradan ancha fursat o'tgan bo'lishiga qaramay, u badiiy qimmatini hamon yo'qotmagan, aksincha, har bir kitobxon ushbu asarni har gal qo'lga o'zgacha mehr va iztirob bilan oladi.

Mol-dunyoni har narsadan ustun bilgan va oxir-oqibatda guldek farzandlarining achchiq qismatiga sabab bo'lgan ota-ona haqida hikoya qiluvchi mazkur asar umid qilamizki, yana bir karra o'zining yangi o'quvchilarini kashf etadi.

Xudoyberdi TO'XTABOYEV

«QASOSKORNING OLTIN BOSHI»

Roman. - 400 b.

Mazkur asarda o'zbek xalqining tarixida o'chmas iz qoldirgan, xalq ozodlik harakatiga boshchilik qilgan qahramonlaridan biri Namoz botir haqida so'z boradi.

Keng kitobxonlar ommasida katta qiziqish uyg'otgan ushbu roman ababiyotimiz xazinasiga qo'shilgan nodir javohirlardan biri hisoblanadi.

O'quvchilarimiz hukmiga havola etilayotgan mazkur kitob ularning kitob javonlaridan munosib o'rin oladi, degan umiddamiz.

Xudoyberdi TO'XTABOYEV

«SARIQ DEVNING O'LIMI»

Roman. – 272 b.

O'zbekiston xalq yozuvchisi, bolalarning sevimli adibi Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" sarguzasht romanining ikkinchi qismi – "Sariq devning o'limi"da asar qahramoni Hoshimjon hayotida mas'uliyatli davr boshlanadi. Tabiatan ziyrak, fahm-farosatli Hoshimjon katta bir operatsiyada qatnashib, uning muvaffaqiyatli yakunlanishini ta'minlaydi. Voqealar rivoji bilan esa asarni mutolaa qilish davomida tanishasiz.

Xudoyberdi TO'XTABOYEV

«SHIRIN QOVUNLAR MAMLAKATI YOKI

SEHRGARLAR JANGI»

Ertak-roman. – 336 bet.

O'zbekiston Xalq yozuvchisi, bolalarimizning sevimli adibi Xudoyberdi To'xtaboyevning sara asarlarini to'rt jildda kitobxonlar hukmiga havola etmoqdamiz. Birinchi jildda «Shirin qovunlar mamlakati yoki sehranlar jangi» ertak-romani o'rin olgan.

Xudoyberdi To'xtaboyevning «Sehrlı qalpoqcha» kitobini o'qigansiz. Esingizda bo'lsa, o'sha kitob qahramonlari orasida Akbar degan bola ham bor edi. Ha, ha, Hoshimjon Ro'ziyevning yaqin do'sti, bo'ri bolasini chenaga qo'shib tomosha ko'rsatmoqchi bo'lgan bir oz xayolparast, bir oz o'yingroq Akbarjon.

Ushbu fantastik-sarguzasht romanda Akbarjon o'z sarguzashtlarini davom ettiradi. Shirin qovunlar mamlakatini har xil illatlardan tozalash maqsadida Sehrgar Iblis bilan jang qiladi. Bu kurashda unga ustozı – professor Dar Daraja va Sehrlı Qalpoqcha yaqindan yordam berishadi



Po'lat
Mo'min

Bo'ladiqan bolalar



ISBN 978-9943-27-178-4



9 789943 271784